



SCIENCE BOX

INGLIZ TILI FANINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Hamroyeva Zulayxo Adashovna

*Kasbi tumanidagi 41-umumi o'rta
ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi
berdiyev8787@mail.ru, +998 99-032-77-59*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati haqida bayon etilgan bo'lib, ingliz tilini o'zlashtirish birmuncha murakkabligini hisobga olib, o'quvchining qiziqishlari va fanni o'zlashtirish darajasi bo'yicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, uslub, fan, metodika

KIRISH

Ma'lumki hozirgi davrda ingiliz tili jadal rivojlanib kelayotgan tillar qatoriga kiradi. Shuningdek, bu jadallahuv yurtimizni ham chetlab o'tgani yo'q. Albatta bu yurtimiz uchun ham, odamlar uchun ham yuqori takomillanishlarni bir belgisi hisoblanadi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'qitishda o'ziga xos bir tajribada, sinalgan shaklda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Til o'rganish kishilik jamiyatida eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Ingliz tili-bu xorijiy mamlakat tilidir. ushbi til G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Ingliz tilidagi so'zlasuv asosan, darsda o'qituvchi rahbarligida kechadi. Ingliz tilini o'quvchilarga o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli ingliz tili o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Ayni paytda ingliz tili o'qituvchisi fanni o'qitish metodikasining yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-o'qituvchining to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Ingliz tilini samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Ingliz tilini o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan ingliz tili o'qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda samarali qo'llanilishiga bevosita bog'liqdir

Ingliz tili predmeti orqali ta'lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, ingliz tili o'rgatish ilmi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti sanaladi.

Metodikaning asosiy tushunchalari-metod, usul, prinsiplar kabilardan iborat. "Metodika" atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchasini anglatadi. O'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarini qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi. Ingliz tilini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari va qadriyatlarini





SCIENCE BOX

bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi.

Ingliz tilini o'qitish metodi-deyilganda ingliz til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi ta'lim usullari yig'indisi va ta'limning yo'nalishi ma'nolarida qo'llanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarjima metodi asosan ikki ko'rinishda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta'limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan.

Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Til organish yozma nutqqa asoslangan hisoblanadi
2. Organish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan hamda grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.
3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so'ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.

Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan ingliz til umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta'limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o'rganish yozma nutqqa asoslangan.
2. O'rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.
3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so'ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.
4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosi so'zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan.
5. So'zma-so'z tarjima va quruq yodlash yo'li bilan til materiali o'zlashtirilgan.
6. So'zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.

Ingliz til ta'limidan ko'zlangan maqsadning yangicha talqinida, asosan, pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanildi. Tilshunoslikning mazkur sohasi tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb talqin qiladi.

Ingliz tilini o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalilanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Ingliz til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Ingliz til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va





SCIENCE BOX

mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilanchambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

Kommunikativ didaktika metodinini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Ingliz til o'rganish natijasida o'zga mamlakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Ingliz ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun mashqni tashkil qilish texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat ingliz til ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobjiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Ingliz tilini o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so'ngi qadam, "mashq texnologiyasi"ga e'tibor qaratish muhim. Ingliz til o'rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarni egallashni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarga asoslangan holda ingliz tilini o'zlashtirish va ko'nikmasinini hosil qilish hamda o'z-o'zini baholash shkalalari asosida tilni bilishning noldan idealgacha spektrida ko'p darajali shkalalardan foydalanish asosida olib borolishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda o'quv mashg'ulotlarini yoki ingliz tili kabinetida tashkil qilish, muloqot muhitini, kommunikativ muhitni yaratish, guruh xonasini tashkil qilishga qo'yiladigan talablarga alohida o'ren beriladi. Individual ish tinglovchilar, guruhlar va juftliklarni takomillashtirish texnikasi, mashg'ulotlar mobaynida o'quv faoliyatini boshqarish usullari ham o'quv mashg'ulotlarini o'quvchilarga yanada qiziqarli tarzda etkazilishiga amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kundagi o'qitish amaliyotimiz bilan taqqoslaganda, o'quvchilar tomonidan o'zlarining ilk bilimlarini, intilishlarini, tajribalarini aqliy hujum, kutish va ijodiy faoliyat tarzida faollashtirish uchun o'qituvchining harakatlari tufayli o'z matnlarini idrok qilishlari alohida qiziqish uyg'otadi. Shubhasiz, o'quvchilarning dastlabki matnli faoliyati o'qituvchi tomonidan matn bosqichida haqiqatda taqdim etilgan ingliz tili nutqi namunasining mazmuni va xususiyatlariga rahbarlik qiladi. Bu yerda mas'uliyat bilan o'quvchilar tomonidan yaratilgan va o'quv matnlarini solishtirish amalga oshiriladi. Natijada esa, o'quvchilarning ingliz tilini mukammal o'rganishlari hamda ularning til savodxonligini oshirish samaradorligini oshirish masalalari yanada takomillashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 610-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 32 (792) son, 2017. – B. 167-169.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi-T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. 164 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliev tahriri ostida.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.- 571 b.





SCIENCE BOX

4. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: J.J.Jalolov, M.T.Irisqulov.-Xalq ta’limi.- №4- Toshkent, 2013.-44 b.
5. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinflar uchun Darslik majmua. Kids’ English Class 1,2,3,4. A.T.Irisqulov, S.Xan va mualliflar jamoasi. -T.: O‘zbekiston, 2013.
6. Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка. – М.: МГЛПУ. Сарма, 2005. – 248 с.
1. Sayfulloevna, S. S. (2022). Content and Characteristics of the Educational Environment and its Creation. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(3), 118–121. Retrieved from <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/306>.
2. Sayfulloevna, S. S. (2023). Safe Learning Environment and Personal Development of Students. *International Journal of Formal Education*, 2(3), 7-12.
3. Alisherovna, T. M. (2023). Problems of Psychological Despotism of Gender Equality in Problem Families. *International Journal of Formal Education*, 2(3), 146-152.
4. Туробова, М. А. (2023). Социально-Психологическое Исследование Деспотизма В Гендерных Отношениях. *International Journal of Formal Education*, 2(4), 92-98.
5. Қурбонова, М. Б. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ТИЛ СОҲАСИДАГИ СИЁСАТ ВА ТАРИХИЙ АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 898-904.
6. Қурбонова, М. Б., & Элбоева, Ш. Б. (2020). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING MANBALARI, METODOLOGIK ASOSLARI VA UNING TURLARI. *Интернаука*, (22-3), 61-63.
7. Қурбонова, М. Б. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ТИЛ СОҲАСИДАГИ СИЁСАТ ВА ТАРИХИЙ АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 898-904.
8. Yoldoshevna, Z. N. . (2023). The Role of Innovative Technologies in the Development of Methodical Training of Teachers in General Secondary Educational Institutions. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(4), 95–98. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1607>.
9. ZIKIROVA, N. Y. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE PROBLEM OF PROFESSIONAL PEDAGOGICAL SKILLS OF A MODERN TEACHER. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(3), 29-37.
10. Zikirova, N. Y. (2023). UMUMIY O ‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TENDENSIYALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 853-858.
11. Yoidoshevna, Z. N. (2022). FACTORS AND CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PEDAGOGICAL SKILLS OF A MODERN TEACHER. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 773-775.
12. Rustamov, R. R., & Elboyeva, S. B. R. (2020). THE EVOLUTION OF THE SYSTEM OF SPIRITUAL PROPAGANDA. *Theoretical & Applied Science*, (10), 218-221.





SCIENCE BOX

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES

.sciencebox.uz

Volume: 03 Issue: 05 / May - 2023

ISSN: 2181-2594

13. Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUksAK MA'naviyatni SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.
14. Elboyeva, S. B. (2022). MILLATLARAPO ҲАМЖИҲАТЛИК-ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 377-385.
15. Элбоева, Ш. Б. (2020). Изменения в культурной жизни Узбекистана и духовном наследии. *Вестник науки и образования*, (13-3 (91)), 26-28.
16. Rustamovna, T. G. (2022). LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF ANTHROPONYM. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 247-254.
17. Tilovova, G. R. (2020). UMUMTAЪЛИМ MAKTABLARINING OHA TIILI VA ADABIЁT FANLARI DASTURLARINI TAKOMILLAШТИРИШ. *Academic research in educational sciences*, (2), 31-37
18. Murodullayevna, J. G. (2023). WAYS OF USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE PRIMARY EDUCATION SYSTEM. *Intent Research Scientific Journal*, 2(2), 124-127.
19. Turdikulova, L. (2023). Formation of a Sense of National Pride among Future Preschool Teachers. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 2(4), 57-63.
20. Turdiqulova, L. (2023). BO'LAJAK MAK TABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARIDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 238-243.
21. Tilovova, G. R. (2023). Improving Mother Language Programs in Schools. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(4), 121-127.
22. Murodullayevna, J. G. (2023). Modern Teaching Methods-a Priority Direction for the Development of Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(5), 10-15.
23. Yusupovna, T. M. (2023). Psychological Factors of Stress Resistance in Adolescents (11-15 Years). *International Journal of Formal Education*, 2(5), 1-8.
24. Nasiba, B. (2023). Increasing the Hydrocarbon Fertility of the Reservoir. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(5), 24-28.

